

UNESCONING SAMARQAND SAMMITI – YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN JADAL ISLOHOTLARGA YUKSAK ISHONCHNING YORQIN IFODASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimida ishtirok etish uchun 30-oktabr kuni Samarqandga tashrif buyurdi.



 Ezgu an’anaga muvofiq, avvalo, Imom Buxoriy maqbarasi ziyorat qilindi. Qur’on tilovat etilib, duo o’qildi.

 Prezidentimiz majmuadagi so’nggi pardozlash ishlari, hududda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish jarayonlari bilan tanishdi.

 Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mazkur majmua buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratildi.

 Majmua hududi kengaytirilib, ayni paytda uning umumiy maydoni 44 gektarga yetdi. Mo’tabar maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma’muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish ayvonlari qurib bitkazilgan. Ziyoratgohning 4 burchagidagi 75 metrik minoralar unga mahobat bag’ishlagan.

 Davlatimiz rahbari yangi masjiddagi bunyodkorlikni ko’zdan kechirdi.

 Prezidentimiz har gal Samarqandga kelganida majmuaning qurilishi jarayoni bilan tanishib, bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma’rifat, tarbiya va ibrat maskani bo’lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezgu namuna bo’lishi kerakligini ta’kidlagandi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA SLOVAKIYA O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK VA KO‘P QIRRALI MUNOSABATLAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Slovakiya Respublikasi Prezidenti Peter Pellegrini amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.

 30-oktabr kuni Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Respublikasi Prezidenti Peter Pellegrini muzokara o’tkazdilar.

 O‘zbekiston bilan Slovakiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqildi.

 Barcha darajalarda ikki tomonlama almashinuvlar ijobiy sur’at bilan davom etayotgani, shuningdek, ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlik mustahkamlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

 Joriy yilda siyosiy maslahatlashuvlar va Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Ishbilarmonlik aloqalari faollashdi. Qo‘shma korxonalar soni uch barobar ko‘paydi.

 Tovar ayirboshlash va investitsiyalarning hajmini oshirish, shuningdek, muhim tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi loyihalarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

 O‘zbekistondan to‘qimachilik, charm, meva-sabzavot va boshqa xaridorgir mahsulotlar, Slovakiyadan kauchuk, avtomobillar uchun butlovchi qismlar, farmatsevtika va boshqa sanoat tovarlari

yetkazib berishni ko‘paytirishga kelishib olindi. Shu maqsadda milliy mahsulotlar ko‘rgazmalarini o‘tkazish, savdo uylarini ochish rejalashtirilgan.

 Raqamlashtirishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

 Banklarning kiberxavfsizlik monitoringini yuritish va yuk tashishlarni kuzatishning ilg‘or tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shma markaz tashkil qilish masalasini ishlab chiqish taklif qilindi.

 Slovakiya biznesi bilan avtomobil butlovchi qismlar, tayyor sut mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada kengaytirishga tayyorlik bildirildi.

 Gumanitar va ta’lim almashinuvlarini faollashtirish istiqbollari ko‘rib chiqildi. 2026-yilda Bratislava shahrida ikki mamlakat rektorlarining birinchi forumini o‘tkazish, turizm ko‘rgazmalari va o‘zaro Turizm kunlarini tashkil etish taklif qilindi. Tartibli mehnat migratsiyasini yo‘lga qo‘yish masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi.

 Ko‘p tomonlama maydonlarda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O‘za

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING UNESCO BOSH KONFERENSIYASI 43-SESSIYASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Hurmatli Rais Janobi Oliyarlari!
Hurmatli Azule Xonim Oliyarlari!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Sizlarni asrlar davomida madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan betakror O‘zbekiston diyorida samimiy qutlashdan behad baxtiyorman.

 Konferensiyamiz so’nggi 40 yil ichida ilk bor UNESCO Bosh qarorgohidan tashqarida — ko’hna va hamisha navqiron Samarqand zaminida bo‘lib o‘tmoqda. Bu bizga albatta katta iftixor bag’ishlaydi.

 Fursatdan foydalanib, anjumanimizda ishtirok etayotgan Serbiya Prezidenti, hurmatli Aleksandr Vuchich Janobi Oliyarlarga, Slovakiya Prezidenti, hurmatli Peter Pellegrini Janobi Oliyarlarga, UNESCO Bosh direktori Odri Azule Xonim Oliyalariga, barcha ishtirokchi davlatlar delegatsiyalariga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

 Bunday nufuzli forumning mamlakatimizda o‘tkazilayotganini Tashkilotga a’zo davlatlarning Yangi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, jadal islohotlarga bo‘lgan yuksak ishonchining yorqin ifodasi, deb qabul qilamiz.

 Shonli sakson yillik yubileyini nishonlayotgan UNESCO o‘tgan davr mobaynida ta’lim, ilm-fan, madaniyat, san’at, axborot sohasida global hamkorlik, o‘zaro ishonch va hamjihatlik borasida jahondagi nufuzli institut sifatida o‘zini namoyon etib kelmogda.

 Tashkilotimizning dunyo xalqlarining milliy o‘zligini saqlash, madaniy merosini asrab-avaylash, turli dinlar o‘rtasida yaqin muloqotni kuchaytirishdagi o‘mi va ahamiyati tobora ortib bormogda.

 Anjumanimiz insoniyatning tarix solnomasiga gumanistik g’oyalar, nodir bilimlar, sivilizatsiyalararo muloqot markazi sifatida kirgan Samarqand shahrida o‘tkazilayotganida chuqur ramziy ma’no bor.

 Bu qadimiy kent azaldan boshariyatning buyuk kashfiyotlari beshigi, ilm-fan, adabiyot

va madaniyat gullab-yashnagan maskan bo‘lgan. Birgina misol. Ulug‘ hukmdor va alloma Mirzo Ulug‘bek barpo etgan rasadxona gumbazlari ostida noyob yulduzlar jadvali yaratilgan. Bu jadval keyinchalik Kopernik va Kepler kabi mashhur olimlarning ilmiy kashfiyotlari oshirishga xizmat qilgani tarixdan yaxshi ma’lum.

 Uch ming yillik shonli o‘tmishga ega, Buyuk ipak yo‘lining durdonasi bo‘lgan, millat va elatlarning tinchlik va do‘stlik makoni — muazzam Samarqandga xush kelibsizlar!

 Hurmatli xonimlar va janoblar!
Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda gumanitar sohada global konsensus va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarining zaiflashayotgani, albatta, barchamizda jiddiy tashvish uyg‘otmogda.

 Geosiyosiy keskinlik va harbiy mojarolar ta’sirida sayyoramizdagi noyob yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va bebaho madaniy meros katta ziyon ko‘rmogda.

Davlatlar o‘rtasida bilim va texnologiyalar, raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha tafovut ortib bormogda. Buning natijasida imkoniyatlar tengsizligi va qashshoqlik kuchaymogda. Bunday murakkab vaziyat UNESCOning asosiy vazifalarini to‘liq amalga oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni har qachongidan ham ko‘proq birlashtirishni taqozo etmogda.

 Biz UNESCOning olijanob va ezgu maqsadlariga qat’iy sodiq ekanimizni yana bir bor ta’kidlaymiz. O‘zbekiston Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasida uyg‘unlik ko‘prigi, barcha uchun ochiq va konstruktiv hamkorlik maydoni bo‘lishga hamisha tayyor.

 O‘zbekiston UNESCOning teng huquqli a’zosi sifatida so’nggi yillarda o‘zaro hamkorlikni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun izchil harakat qilmogda. Jumladan, 2027-yilgacha bo‘lgan besh yillik hamkorlik dasturi samarali amalga oshirilmogda. Buyuk ajdodlarimiz —

Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Amir Temur, Ali Qushchi, Kamoliddin Behzodning yubileylari, Xorazm Ma’mun akademiyasi singari ilmiy dargohlar, “Alpomish” eposi kabi adabiy yodgorliklarning tarixiy sanalari xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

 Butunjahon merosi ro‘yxatiga kirgan Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqand shaharlari qatoriga Zarafshon — Qoraqum yo‘lagi bo‘ylab joylashgan bebaho obidalar ham qo‘shildi. Bu ro‘yxatdan joy olgan G‘arbiy Tyan-shan va Turon cho‘llarining tabiiy hududlari ham mintaqamizning noyob biologik xilma-xilligini yaqqol namoyon etadi.

 Bundan tashqari, “Shashmaqom”, Katta ashula, “Lazgi” raqsi, askiya, kulolchilik va naqqoshlik san’atlari, Navro‘z ayyomi, atlas va adras ishlab chiqarish an’anasi kabi yigirmaga yaqin nomoddiy meros namunalari dunyo xalqlari munosib e’tirof etmogda.

UNESCO shafeligida “Sharq taronalari”, “Maqom san’ati”, Baxshichilik, Hunarmandchilik, Etnosport festivallari muntazam o‘tkazib kelinmogda.

 O‘zbekistonning tashabbusi bilan “Xiva jarayoni: Markaziy Osiyoda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish” rezolyutsiyasi, (2021-yil), “Kichik yoshdagi bolalarga g’amxo‘rlik qilish va ta’lim berish bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi” hamda “Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni munosabati bilan Toshkent deklaratsiyasi” (2023-yil) kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

 Respublikamizda UNESCOning 8 ta kafedras, 24 ta hamkor maktabi faoliyat ko‘rsatmogda. Toshkent va Farg‘ona UNESCOning ta’lim shaharlari Global tarmog‘idan joy oldi. Shuningdek, yuzlab madaniy meros obyektlari ilg‘or texnologiya va xalqaro standartlar asosida restavratsiya qilindi.

► Davomi 2-betda

DARYOLAR OQQAN JOYLARIGA YANA OQMOQ UCHUN QAYTIB KELADILAR

Hozir dunyo xalqlari hayotiy bir sog‘inch bilan yashamoqda. Bu — bag‘rikenglik, hamjihatlikda rivojlanish, ahil bo‘lib, o‘zaro tinch va xotirjamlikda yashash orzusi. Tarixan olganda, insoniyat hamisha shu orzu yo‘lida kurashib keladi. Ammo taqdir har kimning oldiga jiddiy sinovlar qo‘yishi tabiiy. Shunday ekan, bugun tinchlik va bag‘rikenglik tutumlarini zamonaviy talqinda iftoda etish yo‘lini tanlashimiz joiz bo‘ladi.

UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasiga mezbonlik qilayotgan Samarqand shahrining bugungi ruhi butun dunyoga ana shu haqiqatni anglatayotgandek, nazarimizda.



Shu kunlarda jahon afkor ommasining nigohi qadim va hamisha navqiron Samarqand tomonda bo‘lsa, yana bir e’tibori O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyo xalqlarini ezgu maqsad yo‘lida birlashtirish tashabbuslari va tinchlikparvar, farovonlik siyosati hayotiyligida bo‘lib turibdi.

 Biz bejiz bu haqda so‘z boshlamadik. Kuni kecha UNESCO tadbiri ochilish marosimida so‘zga chiqqan UNESCO

Bosh konferensiyasi prezidenti Xondker Muhammad Talha, UNESCO Bosh direktori Odri Azule Samarqand ruhi, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev haqida ko‘p yaxshi va samimiy fikrlar bildirdi.

 — Sizning go‘zal mamlakatingizda, Amir Temur, Bobur va Alisher Navoiylar yurtida bo‘lishdan bag‘oyat mamnunman, — dedi Xondker Muhammad Talha. — Bobur Mirzo bir paytlar shunday degan edi:

“Butun dunyoda Samarqand kabi yoqimli shaharlar juda kam”. Mana, ul zot e’tirof etgan aynan ana shu shahar — go‘zal va qadimiy Samarqandda bo‘lib turibmiz. Asrlar davomida bu maskan g’oyalar, tillar va an’analarni o‘zaro bog‘lab turgan markaz bo‘lgan. U olimlar, sayyohlar rassom va ijodkorlarni o‘ziga jalb qilib kelgan. Samarqandning geografik joylashuvi va madaniy merosi insoniyat taraqqiyotiga

► Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI ASOSIY HAMKORI

So‘nggi yillarda mamlakatimizning UNESCO tashkiloti doirasidagi faolligi oshib bormogda. Bunga mamlakatimizning xalqaro siyosatdagi ochiqlik, madaniy diplomatiyani kuchaytirish va ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan intilishlari asosiy omil bo‘lyapti. UNESCO O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro’sini oshirish, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirishda muhim platforma vazifasini o‘tab kelyapti.

► Davomi 3-betda



E’tirof



Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston mana shu anjumanni yuqori darajada o‘tkazayotganidan mamnumiz. Bu yerga 110 dan ziyod mamlakatdan vakillar kelib turibdi. Bu oldingi yig‘ilishdan ham ko‘p.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari bilan ushbu afsonaviy shaharda bo‘lib turibmiz. Samarqand chindan ham afsonaviy shahar, ko‘hna kentning geografiyasi va tarixi bo‘linish istagiga qarshi turadigan muloqot va almashinuvni rag‘batlantiradi. Chunki bu yerda qadimgi Sug‘diyona va Baqtriya davrlaridan boshlab dunyo xalqlari sayohat, savdo va muloqot qilgan.

Samarqand — unda qabul qilingan ahdlar hech qachon buzilmaydigan muhim savdo markazi sifatida asta-sekin mustahkam shaharga, ulkan imperiya poytaxtiga, ziyolilar o‘chog‘iga, badiiy ijod kamol topuvchi markazga aylandi.

O‘zbekistonga mana shunday tashkilotchiligi, UNESCO bilan kengayib borayotgan sherikchiligi uchun chuqur minnatdorchilik bildiraman”, deya mamnunligini izhor qildi.

Biz yuqorida tinchlik va bag‘rikenglik tutumlarining yangi qiyofasi haqida aytgandik. Martabali mehmonlarimizning bu e’tiroflari esa fitratimizda boshqa bir haqiqatlarni ham jonlantiradi.

Daryolar oqqan joylariga yana oqmoq uchun qaytib keladilar. Bu tabiat qonuniga necha asrlar o‘tib, bugun yana dunyoni hayratga solayotgan “Samarqand ruhi”, ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan “Yangi O‘zbekiston fenomeni” javob bermoqda.

DARYOLAR OQQAN JOYLARIGA YANA OQMOQ UCHUN QAYTIB KELADILAR

Ta’riflanganidek, ahdlar hech qachon buzilmaydigan shahar sifatida ishonch uyg‘otadigan Samarqand zamini Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Biz UNESCOning oljanob va ezuq maqsadlariga qat’iy sodiqmiz. O‘zbekiston Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasida uyg‘unlik ko‘prigi, barcha uchun ochiq va konstruktiv hamkorlik maydoni bo‘lishga hamisha tayyor”.

Endigi gap siyosiy iroda va ezigulik sari quvvatlanish holi haqida.

Shu o‘rinda Xondker Muhammad Talhaning e’tirofini to‘laligicha e’tiboringizga havola qilishni maqsadga muvofiq topdik: “Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy bilim va donolik insonning bezagidir degan edi. Bu so‘zlar O‘zbekiston Prezidenti faoliyatida o‘zining yorqin ifodasini topmoqda.

Janob Prezident ilm-fan, boy madaniy meros, davlat xizmati va umumxalq manfaatlarini umumlashtirgan holda

ushbu yo‘lda fidokorona mehnat qilmoqda. Bugungi kunda bu qadriyatlar UNESCO g‘oyalari bilan hamohangdir. Shu bois, O‘zbekiston Prezidentini tinglash biz uchun katta sharaf.

Muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyevning faoliyati haqiqiy davlat arbobining yo‘li. Kuchli bilim, donolik va mamlakat taqdiri uchun chuqur mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston yetakchisi o‘zining keng amaliy tajribasi va strategik qarashlariga tayanib, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini shakllantira oldi va uni jamiyat manfaatlari yo‘lida qat’iyat bilan amalga oshirib kelmogda.

Hurmatli Prezident Janobi Oliyari rahbarligida mamlakat barcha sohalarida misli ko‘rilmagan taraqqiyotga erishdi. O‘zbekiston o‘zini dunyoga ochdi, muloqot va pragtik diplomatiya yo‘lini tanladi. Mamlakat inson qadr-qimmatini ulug‘lashga qaratilgan ezuq tamoyillarni



qo‘llab-quvvatlagan holda, har bir fuqaroning farovonligini ta’minlash yo‘lida dadil ildamlayapti.

O‘zbekiston ta’lim sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlarni boshidan kechirmogda. Mamlakatda universitetlar soni 2 barobar oshdi. Oliy ta’limdan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, zamonaviy ta’lim tizimi va innovatsion ta’lim markazlari yaratilmogda.

Ayniqsa, o‘qituvchilarga alohida e’tibor qaratilayotgani ularning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish, mehnatini qadrlash borasidagi ishlar doimiy e’tibor markazida ekani chuqur va uzoq muddatli o‘zgarishlarning yaqqol belgisidir. Bilim, mehnat va ijodkorlik yana jamiyatning asosiy qadriyatiga aylandi. Bu milliy uyg‘onishning yangi bosqichi, O‘zbekiston madaniyati va tarixiy merosini ham qamrab olgan uyg‘onish davrining ifodasidir.

O‘zbekiston jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan 7 ta obyekti va UNESCO

tomonidan e’tirof etilgan 16 ta nomdiiy ma’naviy merosi bilan faxrlanadi.

Shuningdek, chegaraviy dominatsiyalar bo‘yicha ham xalqaro tan olinishlarga erishilgan. Merosni asrash va uni qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlar orqali O‘zbekiston rahbari bu yo‘nalishga yangi mazmun bag‘ishladi. Madaniyat, tarix va milliy an’analarni barqaror rivojlantirish, muloqot va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishning kuchli vositasiga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu, ayniqsa, Samarqandda yaqqol sezilib turadi. Shahar nafaqat tarixga guvoh bo‘lgan, balki uning shakllanishiga ham bevosita hissa qo‘shgan. Asrlar davomida rivojlanib, muloqot va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan.

Bugun biz ushbu konferensiyani 40 yildan buyon birinchi marta tashkilotning markaziy shtab-kvartirasidan tashqarida o‘tkazmoqdamiz. Bu esa, albatta, O‘zbekiston Prezidentining tarixiy tashabbusi tufayligina amalga oshdi.

Biz Prezident Janobi Oliyarlarga tashkilot maqsadi va missiyasini so‘zsiz qo‘llab-quvvatlagani, shuningdek, xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va tushunishni mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissalari uchun samimiy minnatdorligimizni bildiramiz”.

Tahlikali hayotda xalq ishonchini qozonish, farovon kelajak sari chorlash, bu yo‘lda qisqa vaqtda bemsil natijalarga erishish katta siyosiy iroda va zo‘r qudrat talab qiladi. O‘z vatani va xalqini sevish, ardoqlash, ular baxti va porloq kelajagi uchun o‘zini ayamalik bu — shunchaki taqdir emas. Bu — buyuk ne‘mat. Yuqoridagi e’tirof bizga shunday xulosalar chiqarish uchun imkon bermoqda.

UNESCOning tarixiy konferensiyasi mohiyatiga qaytadigan bo‘lsak, aytish joizki, tashkilot maqsadlari va uning ma’naviy ruhi bugun yangi O‘zbekiston tanlagan yo‘l va ortga qaytmas tus olgan islohotlarimiz mazmun-mohiyati bilan g‘oyat uyg‘un ekanini ta’kidlash mumkin.

Zero, keyingi yillarda dunyoga ochilgan, dunyo ham unga bag‘rini keng ochayotgan yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya, ilm-fan, aholini ijtimoiy himoya qilish, sog‘liqni saqlash, innovatsiyalar, iqtisodiy yuksalish, inson huquqlarini ta’minlash, millatlararo bag‘rikenglik siyosati, xullas, barcha-barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatimizda bir butun bo‘lib odamlarda hayotdan rozilik hissini mustahkamlamoqda.

Bu UNESCO konferensiyasi ochilish marosimida bildirilgan fikrlardan chiqargan ilk xulosalarimiz edi. Ishonamizki, Samarqandda o‘tayotgan bu voqelik nafaqat bizga, balki butun dunyo jamoatchiligiga ko‘p yaxshi xulosalar qilish imkonini beradi.

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqaro konferensiya

O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI ASOSIY HAMKORI



Bahromjon SOTIBOLDIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Strategik va mintaqalararo
tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston tashabbusi bilan 2017-2025-yillarda yurtimizning “Baxshi”, “Lazgi”, “Palov”, “Askiya”, “Miniatyura”, “Navro‘z”, “Shashmaqom” “Atlas va adras to‘qish an’analari”, “Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy

Bosh konferensiyaning tarixiy sessiyasi qirq yil ichida birinchi marta UNESCOning Parijdagi qarorgohidan tashqarida o‘tkazilmogda. Bunday keng ko‘lamli xalqaro forumning Samarqandda o‘tkazilishi O‘zbekistonning tashkilot g‘oyalari va qadriyatlariga sodiqligi, shuningdek, tinchlik, o‘zaro anglashuv va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi global muloqotni rivojlantirishga faol hissa qo‘shishga qat’iy intilishining yorqin tasdig‘i bo‘ladi.

Ushbu muhim sessiya doirasida ta’lim, fan, madaniyat, ekologiya, texnologiya va kommunikatsiya sohalaridagi asosiy masalalarni muhokama qilishga bag‘ishlangan 150 dan ortiq turli shakldagi tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Anjumanda juda ko‘p davlat va xalqaro tashkilotlardan yuqori darajadagi delegatsiyalar va faxriy mehmonlar ishtirok etmoqda.

Bosh konferensiya arafasida Samarqand shahrida UNESCO XIV Yoshlar forumi hamda UNESCO ishlari bo‘yicha milliy komissiyalarning XII yig‘ilishi o‘tkazilishi ham uning ahamiyatini yanada oshirdi.

Bugun mamlakatimizda UNESCOning sakkitza kafedrası, 24 ta hamkor maktabi faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkent va Farg‘ona UNESCOning ta’lim shaharlari global tarmog‘idan joy oldi. Shuningdek, yuzlab madaniy meros obyektlari ilg‘or va xalqaro standartlar asosida qayta tiklandi.

SAMARQANDDA XOTIN-QIZLAR YETAKCHILIGI BO‘YICHA UNESCO AKADEMIYASI TASHKIL ETILADI



Mukarram NURMATOVA,
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi
o‘rinbosari

Davlatimiz rahbari anjumanda so‘zlagan nutqida qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, tashkilot dunyo xalqlarining milliy o‘zligini saqlash, madaniy merosni asrab-avaylash, turli dinlar o‘rtasidagi yaqin muloqotni kuchaytirishdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ta’kidladi.

tarmog‘i kengaymogda. O‘zbekistonning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida “Dunyo dinlarini tadqiq etish”, “Suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi”, “Madaniyat turizmi”, “Ipak yo‘lida barqaror tarixiy turizm” kabi kafedralar ochilgan.

Xalqimizning noyob madaniy-tarixiy merosini asrash sohasida hamkorlikni yanada faollashtirishga alohida e’tibor qaratilmogda. UNESCO ko‘magida “Sharq taronalari”, baxshichilik san’ati, hunarmandlik festivallari, “Maqom san’ati” kabi qator xalqaro tadbirlar tashkil etilmogda.

Joriy yil aprel oyida Xiva shahrida IV Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida 40 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etdi. Mazkur nufuzli tadbirda 200 ga yaqin baxshi, oqin, jirov, folklorshunos va musiqashunos olimlar ishtirok etdi. 2025-yil 1-sentabr kuni Samarqanddagi Registon maydonida italiyalik mashhur tenor Andrea Bozellining UNESCO shafeligidagi konserti bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir madaniyatlararo muloqot va musiqa orqali dunyo xalqlarini yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston tomonidan UNESCOga 2024-2025-yillar uchun bir qator xalqaro yubiley sanalar taqdim etilib, tashkilot Bosh konferensiyasining 42-sessiyasi doirasida ma’qullangan.

Umuman olganda, O‘zbekiston UNESCOning ishonchli hamkorlaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz madaniyat, ta’lim, ilm-fan, raqamli innovatsiyalar va tabiiy meros sohalarida mintaqada yetakchi gumanitar markaz sifatida tan olinmogda.

Prezidentimiz oila, xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, xotin-qizlarning yetakchilik qobiliyati va kompetensiyalarini oshirish uchun global dasturni faol ishga tushirish muhimligi qayd etildi. UNESCO statistika instituti ma’lumotlariga ko‘ra, jahondagi ilmiy va madaniy muassasalar rahbarlarining 25 foizi, ta’lim sohasi boshqaruvchilarining 30 foizi, tadqiqotchilarning 33 foizi xotin-qizlardir. Bu esa ayollar huquqlarini ta’minlashda tengsizlik hamon saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

Gender tenglik UNESCOning fundamental ustuvor vazifalaridan biri, tashkilotning barcha tashabbuslari unga integratsiya qilinishi zarurligi belgilab qo‘yilgan. Bu borada a’zo davlatlarning ilg‘or tajriba va amaliyotini o‘rganish, bilimlarni almashish maqsadida xotin-qizlar yetakchiligi bo‘yicha UNESCO akademiyasini tashkil etish vaqti kelgani qayd etildi.

Shuningdek, Samarqandda barcha qit’alarning mashhur tadqiqotchilari, san’at namoyandalari, pedagog va ixtirochi xotin-qizlarning ta’lim, madaniyat va fan sohasidagi global forumini o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Albatta, bildirilgan taklif va ilgari surilgan tashabbuslar xotin-qizlar faolligini oshirish, gender tenglikni ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish bilan birga soha xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklaydi.

MULOQOT IKKI TOMONLAMA ALOQALARGA O‘ZIGA XOS RAMZIYLIK BAG‘ISHLAYDI

Slovakiya Prezidenti Peter Pellegrini 29-oktabr kuni amaliy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.

Samarqand shahrida oliy darajadagi ikki tomonlama muzokaralar bo‘lib o‘tdi va Slovakiya yetakchisi UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida ishtirok etdi.

Ushbu voqea O‘zbekiston — Slovakiya munosabatlarida yangi bosqich boshlanishi va ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy muloqot mustahkamlanishini anglatadi.

Slovakiya 1992-yil 24-yanvarda birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan. 1993-yil yanvarda ikki tomonlama diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. O‘shandan buyon ikki mamlakat o‘rtasida mustahkam aloqalar rivojlanib kelmogda. Bu aloqalar so‘nggi yillarda O‘zbekistonning faol tashqi siyosati va modernizatsiyasi sharoitida yanada mustahkamlandi. 1996-yildan buyon Toshkentda Slovakiya elchixonasi ochilishi va 2008-yili Bratislavada O‘zbekistonning faxriy konsuli tayinlanishi diplomatik munosabatlarni institutsional jihatdan mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamlarni belgilab berdi. So‘nggi yillarda siyosiy muloqot sezilarli darajada jonlangani kuzatildi.

2024-yil mart va sentabr oylarida O‘zbekiston va Slovakiya tashqi ishlar vazirlari Turkiyada bo‘lib o‘tgan Antaliya diplomatik forumi va BMT Bosh Assambleyasi doirasida uchrashdi. Unda har tomonlama hamkorlikni kengaytirishga o‘zaro sodiqlik yana bir bor tasdiqlandi.

2025-yil yanvarda Toshkentda tashqi siyosatidoralari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning beshinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston va Slovakiya hamkorlikni izchil ravishda chuqurlashtirishga sodiq ekani yana bir bor tasdiqlandi.

2025-yil iyunda Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi. Muzokaralar yakunida Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyasi imzolandi. Bu esa Toshkent va Bratislava o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi.

Parlamentlararo hamkorlik ham faol rivojlanmogda. 1990-yillarning oxirida Slovakiya Milliy Kengashi spikeri Yozef Migash rasmiy tashrif bilan Toshkentga keldi. 2023-yil aprelda Boris Kollar boshchiligidagi Slovakiya parlamenti delegatsiyasi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazdi. 2025-yil mart oyida Oliy Majlis Senati va Slovakiya Milliy Kengashi o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik guruhining tarkibi tasdiqlandi. Bu esa parlamentlararo muloqotga barqaror va amaliy tus berdi.

O‘tgan o‘rni yilliklarda iqtisodiy hamkorlik nisbatan kamtarona bo‘lgan bo‘lsa-da, hozir tomonlar ushbu yo‘nalishdagi sheriklikni jadallashtirishga intilmogda. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini liberalashtirish va mamlakatning sheriklar uchun ochiqligi Slovakiya biznesi uchun qulay sharoitlar yaratmogda. Xususan, ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aylanmasi 2024-yilda 59,7 million dollarni, 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida esa 55,7 million dollarni tashkil etdi. Xizmatlar va rangli metallar O‘zbekiston eksportini, mashinasozlik, uskunalar va

kimyoviy mahsulotlar esa O‘zbekiston importining asosiy qismini tashkil qiladi. O‘zbekistonda Slovakiya kapitali ishtirokidagi olitva korxona faoliyat yuritadi. Ulardan to‘rttasi 100 foiz xorijiy investitsiya hisobida ochilgan.

2023-yil avgustda O‘zbekiston delegatsiyasi O‘zbekiston — Slovakiya biznes forumida ishtirok etish uchun ushbu mamlakatga tashrif buyirdi. 2025-yil mayda Slovakiya tomonidan iqtisodiyot vaziri o‘rinbosari Vladimir Shimonek raisligida Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu qadamlar sanoat, energetika, mashinasozlik, farmatsevtika va mehnat migratsiyasi sohalarida qo‘shma loyihalarni amaliy amalga oshirish uchun asos yaratdi.

Ta’lim va inson resurslari sohalaridagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratilyapti. 2014-yildan buyon Slovakiya hukumati o‘zbekistonlik talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun stipendiyaalar ajratmogda. 2025-yilda migratsiya va mehnat resurslari bo‘yicha O‘zbekiston — Slovakiya forumi bo‘lib o‘tdi. Forum davomida Ish beruvchilar federatsiyasi va Slovakiya kadrlar agentliklari assotsiatsiyasi bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Gumanitar aloqalar O‘zbekiston — Slovakiya muloqotining ajralmas qismi bo‘lib qolmogda. 1997-yilda madaniyat va san’at sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim imzolangan bo‘lib, u delegatsiyalar almashinuv, qo‘shma madaniy loyihalar va xalqaro tadbirlarda ishtirok etish imkonini beryapti.

1998-yildan buyon Toshkentda O‘zbekiston — Slovakiya do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmogda va u ikki mamlakat xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bunga yorqin misol sifatida 2018-yilda bo‘lib o‘tgan “Chexoslovakiya, Chexiya va Slovakiya kinosi kunlari”, shuningdek, tanliq slovak pianinchisi Eduard Yambor ishtirokidagi konsertni keltirish mumkin.

Turizm sohasi hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri. 2019-yilda Slovakiya fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgani sayyohlik rivojiga hissa qo‘shmogda. O‘sha yili O‘zbekistonga 1000 dan ko‘p slovakiyalik sayyoh kelgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 1700 dan oshdi.

Slovakiya Prezidentining Samarqandda bo‘lib o‘tadigan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida O‘zbekistonga tashrif ikki tomonlama munosabatlarga o‘ziga xos ramziylik bag‘ishlaydi. Madaniyat va diplomatiya, tarix va kelajak birlashadigan Samarqand shahri xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik mustahkamlanadigan va hamkorlik uchun yangi tashabbuslar tug‘iladigan muhim maydonga aylanadi.

O‘zbekistonning faol tashqi siyosati, modernizatsiya va dunyoga ochiqchilik sodiqligi o‘zbek-slovak munosabatlarini yangi bosqichga — o‘zaro hurmat, ishonch va barqaror rivojlanishga umumiy sadoqatga asoslangan strategik sheriklikka ko‘tarish uchun qulay sharoitlar yaratmogda.

“Dunyo” AA

Nuqtayi nazar

Bugun masofaviy ta’limga nafaqat favqulodda vaziyatlarda, balki ta’limni uzluksiz va inklyuziv shaklda tashkil etishning strategik mexanizmi sifatida qaralmoqda. Bunday ta’lim jarayoni videoaloqa, elektron platformalar, virtual auditoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari va onlayn baholash tizimlariga tayanadi. Shuningdek, u o’quv jarayonidan tashqari ilmiy tadqiqot, metodik hamkorlik, xalqaro akademik almashinuv imkoniyatini ham kengaytiradi. Hududiy tengsizlikni kamaytirib, inklyuziv ta’lim sharoitini yaratadi. Yoshlarning xalqaro ta’lim muhitiga kirib borishiga turtki beradi.



Dilshod BARATOV,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Dunyo tajribasida masofaviy ta’limning ommalashuvi pandemiya davriga to’g’ri kelgan bo’lsa, ayni paytda AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi davlatlarda ushbu tizimning samarali modeli yaratilgan. Ushbu jarayondan O’zbekiston ham chetda emas, albatta. “Raqamli O’zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025/2026 o’quv yilidan boshlab masofaviy ta’lim rasmiy davlat ta’lim standartlariga integratsiya qilindi. Endi u shunchaki “onlayn darslar” majmuasi emas, balki sun’iy intellektga asoslangan o’quv ekotizimi sifatida rivojlanmoqda. Shu bois, uni chuqur o’rganish, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, milliy ta’lim tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Chunki xalqaro tajribada bu borada ijobiy natijalar bisyor. Jumladan, AQSHda masofaviy ta’lim rivojlanishiga Garvard, Stenford universitetlari, Massachusetts texnologiyalar instituti kabi nufuzli oliy ta’lim muassasalari katta hissa qo’shgan. Ular ishlab chiqqan ta’lim platformalari bugun butun dunyo talabalariga bepul yoki arzon bilim olish imkonini bermogda. Masalan, edX platformasi 160 dan ortiq universitet bilan hamkorlikda 4000 dan ziyod kursni taqdim etadi. Bu modelda asosiy urg’u talabalarining individual o’quv yo’nalishini shakllantirish va mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Buyuk Britaniyada esa The Open University dunyodagi eng yirik masofaviy ta’lim muassasalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning modelida asosiy e’tibor aralash ta’lim yondashuviga qaratilgan. Ya’ni onlayn o’qitish bilan birga amaliy mashg’ulotlar, vebinarlar va sinxron muloqot elementlari birlashtiriladi. Buyuk Britaniya hukumati masofaviy ta’limni milliy malaka oshirish doirasiga kiritib, raqamli diplomlar tizimini joriy qilgan. Bu, o’z navbatida, bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Kanadada masofaviy ta’lim tizimi provinsiylar kesimida mustaqil rivojlanadi. Atabaska universiteti mamlakatda to’liq onlayn ta’lim beruvchi ilk OTM sifatida tan olingan. U o’z kurslarini ta’limni boshqarish tizimi orqali amalga oshiradi va o’qituvchi-talaba muloqotini real vaqt rejimida qo’llab-quvvatlaydi. Kanada hukumati 2022-yilda Raqamli ta’lim — 2030 strategiyasini qabul qilgan bo’lib, u masofaviy ta’lim sifatini milliy akkreditatsiya tizimi orqali nazorat qilishni nazarda tutadi. Janubiy Koreya ta’lim tizimi raqamli transformatsiyada eng muvaffaqiyatli modellar qatoriga kiradi. Mamlakatda masofaviy ta’lim uchun yaratilgan platformalar sun’iy intellekt

asosida o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini tahlil qiladi va moslashtirilgan kontent taqdim etadi. Bu esa o’quv jarayonini shaxsga yo’naltirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi. O’zbekiston ta’lim tizimida ham so’nggi yillarda raqamlashtirish jarayoni jadallashuvi tufayli masofaviy o’qitish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Bu tizimni bosqichma-bosqich yo’lga qo’yish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, texnologik imkoniyatlar va global ta’lim tizimidagi o’zgarishlar bilan chambarchas bog’liq. Ushbu jarayon Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori asosida huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Albatta, har bir tashabbusning ommalashuvida huquqiy asos katta o’ringa ega. Shu maqsadda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuniga masofaviy ta’lim shakli kiritildi. Shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Masofaviy bakalavriat yo’nalishlarini tashkil etish to’g’risidagi nizomi bilan masofaviy o’qitishning tashkiliy, metodik va texnologik talabari belgilandi. Bu hujjatlar xalqaro tajriba, xususan, UNESCO hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqildi.

O’zbekiston oliy ta’lim tizimida aynan shu yondashuv asosida 2022-2024-yillarda Toshkent davlat texnika universiteti, O’zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti, shuningdek, 2025-yilda Qarshi davlat texnika universiteti singari yirik oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim bo’limlari ochildi.

Masofaviy ta’lim samaradorligi texnik baza va raqamli infratuzilmaga bevosita bog’liq. Shu bois, 2020-2024-yillarda oliy ta’lim muassasalarida muayyan platformalar asosida onlayn kurslar va videokonferensiya tizimlari yo’lga qo’yildi. Bu bosqichda o’qituvchilarning texnologik, pedagogik va kontent bilimlarini integratsiyalashtirish e’tibor qaratildi. Natijada O’zbekiston oliy ta’lim tizimining 80 foizdan

ortig’i barqaror internet va raqamli ta’limni boshqarish tizimi bilan qamrab olindi.

O’quv rejalarini qayta ko’rib chiqilib, har bir fan bo’yicha o’quv natijalari aniq belgilandi, ilg’or yondashuv asosida o’qitish, baholash va natijalar o’zaro bog’landi. Shuningdek, multimedaviy o’qitish prinsiplari asosida interaktiv darsliklar, videoma’ruzalar, test tizimlari va virtual laboratoriyalar ishlab chiqildi. Bu esa masofaviy o’qitish jarayonida bilimni vizual, audio va interaktiv shaklda yetkazishga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, 2025/2026 o’quv yilidan O’zbekiston ta’lim tizimida masofaviy ta’limni takomillashtirish maqsadida qo’llanayotgan



yangiliklar kam emas. Xususan, “EduOnline.uz” yagona masofaviy ta’lim platformasi orqali barcha oliy ta’lim muassasalari uchun integratsiyalangan ta’limni boshqarish tizimi yo’lga qo’yildi. Blokcheyn asosida diplom va baholash tizimi sinov tarqasida joriy etilmoqda. Qishloq hududlardagi talabalar uchun sun’iy intellekt yordamida adaptiv o’qitish tizimi yaratildi. Virtual laboratoriyalar markazi tashkil etilib, texnik fanlar uchun 3D tajribalarni onlayn bajarish imkoniyati yaratildi.

Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda 2025/2026 o’quv yilida masofaviy ta’lim sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilganini aytish joiz.

Shuningdek, sentyabrda boshlab sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta’lim tizimlari sinov tarqasida qo’llana boshladi. Bu talabalarining o’zlashtirish darajasi, bilim tahili va o’qish sur’atiga qarab individual o’quv yo’nalishlarini shakllantiradi. Adaptiv o’qitish tizimlari talabaning faolligini 50 foizgacha oshirib, o’zlashtirish samaradorligini an’anaviy ta’limga nisbatan sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kelgusi yildan texnik va tabiiy fanlar uchun “Virtual Labs Uzbekistan” loyihasi ishga tushirilishi masofaviy ta’lim tizimini yanada

imkoniyatiga ega bo’lgani buning yaqqol tasdig’i.

O’zbekiston tajribasida ham bu borada muayyan natijalar mavjud. “Raqamli O’zbekiston — 2030” strategiyasi asosida “EduOnline.uz”, “ZiyoNet”, “Moodle.uz”, “MyEdu.uz” kabi platformalar orqali mamlakatning eng chekka hududlarida ham yoshlar oliy va o’rta maxsus ta’lim dasturlariga ulanib, sifatlil bilim olmoqda. Bu jarayon ta’limda ijtimoiy adolat va inklyuzivlik tamoyillarini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda masofaviy ta’limga “ta’limning ijtimoiy tenglik kafolati” sifatida qaralmoqda.

Jarayonning yana bir afzalligi shundaki, yoshlarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o’rgatadi. Masalan, “Virtual Labs Uzbekistan” loyihasi orqali yigit-qizlar biologiya, kimyo, fizika, muhandislik sohalaridagi tajribalarni 3D simulyatsiya muhitida bajaryapti. Yoshlar virtual tajribalar, butullti texnologiyalar, blokcheyn asosida baholash tizimlari bilan ishlab, raqamli texnik tafakkurini boyitmoqda.

Qolaversa, bu orqali ta’lim xarajati 40 foizgacha kamayadi. Mamlakatimiz sharoitida bu yoshlar uchun, ayniqsa, muhim. Chunki ko’plab talabalar ish bilan bir qatorda ta’limni davom ettirish imkoniga ega bo’lmoqda. Qolaversa, nogironligi bo’lgan yoshlar, ayollar, ishlovchilar uchun inklyuziv o’quv muhiti yaratildi. “Digital Education for All” dasturi asosida ijtimoiy himoyadagi 2000 dan ortiq yosh bepul onlayn kurslarda ishtirok etmoqda.

O’zbekistonda masofaviy ta’limni tashkil etish bosqichlari tizimli, izchil va ilmiy asosda olib borilayotir. Har bir bosqichda xalqaro standartlar, ilg’or texnologiyalar va milliy ta’lim an’analari uyg’unlashtirilmoqda. 2025/2026 o’quv yilida joriy etilgan masofaviy ta’lim shaklidagi yangi imkoniyatlar ilg’or 300 talikka kirgan oliy ta’lim muassasalari darajasidagi xalqaro ta’lim standartlariga yaqinlashtirimoqda.

Yuksalish pallas

Tasavvur qiling, ko’p qavatli uylarda lift bo’lmasa yoki metro va boshqa transport yo’q bo’lsa. Kompyuter, telefon yaratilmaganida-chi?.. Agar muhandislik kasbi bo’lmaganida hayotimizni yengillashtiradigan qurilmalar, texnika vositalari ham yaratilmagan bo’lardi. Muhandislar shu ma’noda ham yaratuvchilar, odamlar hayotini yengillashtiruvchi kasb egalari sifatida qadrlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining hozirgi va kelgusi talabiga mos ravishda texnika hamda muhandislik yo’nalishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Oliy ta’limga qo’shimcha kvotalar berilyapti.



MUHANDISLIK MAKTABLARI
ISTIQBOLLI KELAJAKNING TAMAL TOSHI

Shulardan kelib chiqqan holda, endilikda ilg’or muhandislarini tayyorlash borasidagi ishlar yanada takomillashadi. Jumladan, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida 14 ta hududda muhandislik maktablari tashkil etiladi. Shu yilning 9-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida bu haqda aytib o’tildi. Shundan so’ng “Yangi avlod muhandislarini tayyorlash va muhandislik ta’limini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaror ham imzolandi.

Hujjatda ushbu maktablarga o’quvchilar saralab olinishi va davlat byudjeti hisobidan o’qitilishi ko’rsatilib, ularda “Yangi O’zbekiston” universiteti va Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab tajribasi asosida muhandislik ta’lim dasturi joriy qilinishi ko’rsatilgan. Nima uchun?

— Chunki bu maktablarga kadrlarga ehtiyoj yuqori sohalarga malakali mutaxassislar tayyorlashning boshlang’ich bo’g’ini sifatida qaraladi, — deydi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi boshqarma boshlig’i Said Ashirov. — Shunday ekan, mazkur maktablarda bolalar alohida ta’lim sharoitida o’qitilishi kerak. Muhandislik maktablarga umumiy o’rta ta’lim muassasalarining matematika, mantiqiy fikrlash, informatika va muhandislik yo’nalishlari bo’yicha qobiliyati bor 6-sinf bitiruvchilari tanlab olinadi. Ularning

texnika sohasidagi iqtidorini rivojlantirishimiz, amaliyotda ko’zini pishitishimiz, bilimini oshirishimiz zarur. Bir haftada 12 soatlik yuklama bo’yicha o’quvchilar darsdan so’ng “Yangi O’zbekiston” universiteti professor-o’qituvchilari tomonidan o’qitilmoqda. Shuningdek, ular zamonaviy laboratoriyadan foydalanadi, turli loyihalarda qatnashadi. Chunonchi, 2025/2026 o’quv yilidan boshlab Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda tajriba-sinov tarqasida “Yangi O’zbekiston” universiteti bilan o’zaro integratsiyalashgan o’quvchilarni muhandislik asoslariga o’rgatish bo’yicha ta’lim dasturlari joriy qilindi. Ixtisoslashtirilgan maktabning o’quv jarayoni 5 yillik dasturlar asosida STEM modeli bo’yicha tashkil etiladi. Dastlabki 3 yilda ustuvorlik o’quvchilarda fizika, matematika, informatika va ingliz tili bo’yicha fundamental bilimlarni shakllantirishga, keyingi 2 yilda esa muhandislikka boshlang’ich tayyorgarlikni ta’minlashga qaratiladi. Muhandislik ta’lim dasturlari “Yangi O’zbekiston” universiteti bakalavriat ta’lim dasturlari bilan o’zaro integratsiya qilinib, darslar ingliz tilida o’tiladi. “Yangi O’zbekiston” universiteti tomonidan ixtisoslashtirilgan muhandislikka boshlang’ich tayyorgarlik fanlarini muvofiqashtirish uchun akademik direktor birlashtiriladi.

Bunday imkoniyatlar sohaga qiziqishi bo’lgan har qanday yoshni o’qib-o’rganish, izlanishga undaydi. Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori Sherzod

Xudoyqulov bilan suhbatda esa bu tizimning nechog’liq ahamiyatli ekani xususida fikrlashdiki:

— Muhandislik maktablari, avvalo, yosh avlodni erta bosqichdan oq fizika, matematika, informatika va ingliz tili fanlariga chuqur qiziqish bilan yondashishga, muhandislik tafakkurini shakllantirishga yo’naltiradi. Bu orqali o’quvchilarning nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko’nikmalarni ham egallab, innovatsion fikrlaydigan, texnologik yangiliklarni yaratishga qodir mutaxassislar sifatida voyaga yetadi. Natijada zamonaviy bilim va amaliy ko’nikmalarga ega mahalliy muhandislar yetishib chiqadi. Bu esa chet el mutaxassislariga bog’liqlikni kamaytiradi. Innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar rivojlanadi — o’quvchilar yoshligidan muhandislarcha fikrlash, loyiha ishlab chiqish kabi ko’nikmalarni egallaydi. Bu kelgusida startaplar va innovatsion korxonalar ko’payishiga sabab bo’ladi. Eng muhimi, iqtisodiyotning real sektori uchun mutaxassislar zaxirasi yaratiladi. Ya’ni energetika, AT, mashinasozlik, qurilish va telekommunikatsiya sohalarida mahalliy kadrlar soni ortib, mamlakatning ichki salohiyati mustahkamlanadi. Qolaversa, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiya kuchayadi. Universitet va maktab o’rtasidagi bog’lanish esa yoshlar ta’limi bilan ishlab chiqarish ehtiyojlari o’rtasidagi uzilishni bartaraf etadi.

Bunday maktablar sohada mutaxassislar tanqisligiga barham beradi. Amaliy

yo’naltirilgan ta’lim tizimi tufayli o’quvchilar nazariy bilimni hayotda qo’llashni o’rganadi. O’zimizda yuqori sifatli muhandislik ta’limi mavjud bo’lsa, ko’plab iqtidorli yoshlar mamlakatda qoladi. Yangi avlod muhandislari raqamli iqtisodiyot va “yashil” texnologiyalarni rivojlantiradi. Shu ma’noda, bu tashabbus O’zbekistonni yangi industrial



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O’QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



Mutasaddilarning ta’kidlashicha, viloyatlarda ham xuddi shu tartibda ishlanaadi. Har bir hududdagi texnika oliyoghlarga yangi turdagi ta’lim muassasalari birlashtirilgan. Keyingi o’quv yilidan barcha hududlarda muhandislik maktablari faoliyat boshlaydi. Unga qadar qurilish, ta’minlash, jihozlash, o’qituvchilarni saralash ishlari olib boriladi. Qolaversa, oliy ta’limda dars beradigan professorlarning maktab yoshidagi bola bilan ishlash olish mahorati o’rganilib, tahlil qilinishi kerak. Albatta, yangi tizim, yangi mexanizmi yo’lga qo’yishda o’ziga yarasha qiyinchiliklar bo’ladi. Oliyoghlarni yo’nalishtirishda kelib chiqib, o’quv dasturi, o’quv rejasi ishlab chiqilishi kerak.

Darvoqe, endilikda umumta’lim maktablarida “Ilg’or muhandislik maktabi” milliy tanlovi o’tkaziladi. E’tibor bersangiz, hozirgi paytda oliyoghlarga sertifikat imtiyozlari bo’yicha kirish borasida eng yuqori ko’rsatkich filologiya, tillar yo’nalishlari bo’lib turibdi. Muhandislik bo’yicha esa bu ko’rsatkich juda past. Shu nuqtayi nazardan, matematika, kimyo, biologiya yo’nalishida tanlovlar tashkil qilinib, g’olib bo’lgan maktab jamoasini xorijga ta’lim sayohatiga yuborish ko’zda tutilayapti. “Eng yaxshi chet tili o’qituvchisi” tanlovi yo’lga qo’yilgach, yoshlar o’rtasida xorijiy tilni o’rganishga qiziqish oshganidan kelib chiqsak, yangi tanlov ham yuzlab bo’lajak muhandislarni kashf qilsa ajab emas. G’olib maktablar uchun 1 milliard mablag’ ajratilib, innovatsion minitexpopark qurish ko’zda tutilayotganida ham ana shunday yoshlarni yaratuvchanlikka o’rgatish maqsad qilishga, Zero, ular o’z ustida ko’proq ishlashi, g’oyasini amalda sinab ko’rish uchun ijodiy muhit, yetarli sharoit kerak bo’ladi. Bu esa sohani rivojlantirishda muhim o’rin tutadi.

Ma’lumotlarga ko’ra, dunyoning ilg’or davlatlarida, xususan, Germaniya, Fransiya, Shveysiya kabilarda muhandis bo’lishni istagan talabalar zamonaviy texnologiyalar asosida o’qitiladi, ularning amaliy tayyorgarligi ishlab chiqarish bilan uyg’unlashgan bo’ladi. Yevropadagi ko’plab OTMlarda talabalar o’qish bilan bir paytda real ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o’tab, zamonaviy qurilish usullari, muhim yo’nalishlar bilan yaqindan tanishib boradi.

Umuman olganda, har bir darsda amaliyotga katta e’tibor qaratiladi. Nasib qilsa, keyingi yildan o’zimizda ham shu kabi tizim yaratiladi va kelajagimiz istiqboli uchun xizmat qiladi. Bugun tarkibida 21 ta ixtisoslashtirilgan, 14 ta Prezident, 9 ta ijod, 2 ta sport, 1 ta Al-Beruniy maktabi hamda 3 ta oliy ta’lim muassasasi bo’lgan Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi 2028-yilga qadar yana 13 ta muhandislik, 7 ta Ibn Sino, 4 ta Al-Xorazmiy maktabi bilan yanada kengayadi.

Munojat MO’MINOVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri



YULDUZLARI KAFTINGGA QO‘NADIGAN YURT

Quyoshni qarshi olish...

Quyoshni qarshi olish... Bu oson emas. Boshdan o‘tkazgan yaxshi biladi. Buning uchun ancha yo‘l bosish, zahmat chekish, matonat ila yuqoriga ko‘tarilish kerak. Oson ko‘ringani bilan har kim ham eplay olmaydi.

Biz ham maqsadni katta olib, harakatni boshladik. Rejaga ko‘ra, dastlab yengil mashinalarda Shahrisabz tumanidagi Ko‘l qishlog‘iga yo‘l oldik. Viloyat markazidan chamasini to‘rt soat yo‘l bosildi. Buyog‘i manzil yaqin qolgandek edi. Boisi, ikki tomoni dara. Ammo endi tez yurishga imkon yo‘q. Toshloq va tor yo‘l. Oldindan biror mashina kelib qolsa, to‘xtab o‘tkazib yuborishga majbur bo‘ladi kishi. Bu yerda “Niva”dan boshqa mashina uchramaydi.

Yo‘lning o‘ng tomonida Oqsuv daryosi oqmoqda. Bir oz dam olib, suvdan hovuchlab ichib ko‘rishga chog‘landik. Muzdek. Chanqoqni qondirishga qo‘rqadi odam. Oligsa termulamiz. Oldinda savlat to‘kib turgan baland qoyalarda qor erib, suvi daryoga quyilayotgani aniq. Atrofga boqib, ko‘z quvnaydi. Manzaranı tasvirlashga til ojiz. Bunaqasini faqat suratlarda ko‘rish mumkin. Ayrim joylardagi uylar go‘yo qoyada osilib turgandek taassurot uyg‘otadi. Hayratlanmaslikning iloji yo‘q...

Ko‘l qishlog‘iga kirib bordik. Tabiati o‘zgacha, tog‘ etagidagi ajib qishloq. Odamlari mehnat bilan mashg‘ul. Ovul shahardan ancha salqin. Yupun kiyingan kishini uchratmaydiz.

Shu yerda bir oz dam olib, mashinalarimizni qoldiradigan bo‘ldik. Bu yog‘iga “Niva”da ketdik. Haqiqiy manzara endi boshlandi. Dastlab bizni qoyil qoldirgan jihat tog‘ odamlarining mehnatkashligi bo‘ldi. Sababi kamida o‘n kilometr pastdagi daryodan qiyalatib ariq qazilib, tepalikka suv chiqarib kelingan. Kimdir kartoshka, kimdir arpa, bug‘doy ekan. Ekin maydonlari qiyalikda. Tag‘in avgust bo‘lishiga

qaramay, bug‘doy ko‘m-ko‘k maysa bo‘lib turibdi. Kartoshka endi gulga kirgan.

Mashina tepalik tomon harakatlanadi. Haydovchi shu qishloqdan. Ulovni qiyinchiliksiz boshqaradi. Yo‘lovchilarning hadigini sezib, “Xavotir olmanglar, bu yoqqa har kuni chiqib kelaman”, deydi. Hartugul shu gapdan keyin ko‘nglimiz xotirjam bo‘ladi. Tepalikka chiqib olgach, endi pastga ena boshlaymiz. Yon tomonga qarashga yurak dov bermaydi. Chuqur jarlik. Tosh yumalasa, zovga kamida o‘n daqiqada yetib borsa kerak. Atrofning go‘zalligiga boqib, ko‘z to‘ymaydi.

Taxminan ikki soatlardan so‘ng belgilangan joyga yetib bordik. Qolgan yo‘lda mashina yurolmas ekan. Bizga o‘xshab kelganlar ham ulovini shu yerda qoldirib ketgan. Buyog‘iga piyoda jo‘naymiz. Soat 18:00 ga yaqinlashib qolgandi. Yo‘lboshchimiz taklifiga ko‘ra, qalin kiyimlarni safarxaltaga joylab ko‘targancha yo‘lga tushdik. Manzilga yetish uchun naq sakkiz kilometr masofani bosib o‘tish lozim. Mashaqqatli jihati faqat tepalikka qarab yurish kerak.

Bir chaqirim yo‘l yurmasimizdan atrofi tun pardasi qoplay boshladi. Qo‘lchiroqlarni yoqdik. Biz kabi tepalik tomon harakatlanayotganlar ko‘pchilik ekan. Ular orasida keksalar, ayollar, bolalarni ham uchratish mumkin. Yolg‘izoyoq yo‘l ilonizi bo‘lib ko‘tarilib boradi. Avvaliga uncha bilinmadi. Yuqorilaganimiz sari toliqa boshladik. Harakatimiz susayib, yo‘l chetida tez-tez o‘tirib, dam olamiz. Boshqalar ham shunday qiladi. Aksariyatning qo‘lida tayoq bor. Tepalikka ko‘tarilishda hassaga tayanish ancha yordam berayotgandi. Biroq balandga chiqqan sari havo sovil boraveradi. Asta-sekin qalin kiyimlarni kiya boshladik. Havo bosimi ham kuchaydi. Bir soatdan ortiq yo‘l yurilgach, hamrohlarimizdan biri toliqanini aytib, ortga qaytdi. Biz esa oldinga harakatlanamiz. Lekin oson bo‘lmayotgandi. Ayrim otaxonlarning shijoatini ko‘rib havasimiz keladi. Ulardan ortda qolishga xijolat bo‘lib olg‘a intilamiz. Nafas roslayotgan mo‘ysafidni subhatga tortaman.

— Ancha yildan beri kampirim bilan shu cho‘qqiga chiqishni niyat qilib yurgandik, — deydi kitoblik Nurman bobo Bahriyev. — Bu yil nasib etgan ekan. Mana, oldinlab boraypman. Kampirim charchab qoldi. Ortaqa qaytarib yubordim. Nabiralarni bilan birga yetib olaman degan umiddaman. G‘ayrat qilsak, yetamiz.

Bir maromda qadam tashlab boraversak charchamaymiz. Ko‘p dam olgan odam soviydi. Shuning uchun shoshilmay, bir maromda yurish kerak.

Otaxonning so‘zlari bizga kuch bag‘ishlaydi. Yana yurishda davom etamiz. Endi charchoq bilan birga sovuq ham harakatga ta‘sirini o‘tkazayotgandi. Soat tungi o‘n birlarga borib ancha yo‘l bosib qo‘yidik. Yo‘l boshida yuqorida ko‘rinayotgan yulduzlar endi ro‘paramizga kelib qolgandek edi. Bu yerga yetguncha ancha mashaqqat chekishga to‘g‘ri kelgandi. Hamrohlarimizdan yana ikki kishi ortga qaytib ketdi. Nafaqat hamrohlarimiz, balki yo‘lga tushgan sayyohlarning teng yarmi ortga qaytishga majbur bo‘lgandi.

Havo ancha sovgan, izg‘irin ko‘z ochirmasdi. Ba‘zan kattaroq qoya panasida



hordiq chiqaramiz. Tosh bo‘laklari muz parchasidek yaxlagan. Tun yarim bo‘lgani bois, endi uyqusizlik qo‘shilib, harakatlanish yanada qiyinlashgandi...

Mashaqqat bilan tong payti — soat 4 larga yaqin cho‘qqiga yaqinlashdik. Elik metrlar yursak, cho‘qqiga chiqamiz. Aksariyat odamlar kattaroq tosh panasida dam olyapti. Soat beshga yaqin quyosh chiqadi. Unga qadar cho‘qqida — bu sovuqda o‘tirishning o‘zi bo‘lmaydi. Yarim soatdan so‘ng tepaga ko‘tarildik. Kattagina tosh supa. Taxminan 50 kvadrat metr bor.

Bir chetga o‘tiramiz. Boshni baland ko‘tarsangiz bulutga uriladigandek, qo‘l uzatib, yulduzni ushlash mumkindek yaqin ko‘rinadi...

Tun yorishib, olisdan quyosh sekin bosh ko‘tara boshladi. Ajib holat. Go‘yo dengiz tubidan chiqib kelayotganday quyosh qalqib-qalqib ko‘tariladi. O‘ftob nurlarini har tong ilk bor shu cho‘qqi qarshi olsa, ajabmas. Quyosh ham avval shu balandlik bilan salomlashib, keyin atrofqa qaraydi, nazarimda. Yangi kun

boshlandi. O‘ftob tafti avval yuzimizga tegib, keyin butun tanamizga ilqlik baxsh etdi. Sovuqdan titrab turgan ko‘limiz, toliqqan yujudimizga qayta kuch kirgandek bo‘ldi. Ko‘nglimiz yorisha boshladi. Yuzimizda tabassum paydo bo‘layotgandi. Qizig‘i, ko‘zimiz ham ravshanlashgandi. Yonimizga qaraymiz. Kamida yuzga yaqin odam quyoshga termulib o‘tiradi. Ular orasida keksalarni ham uchratish mumkin. Matonat bilan dengiz sathidan 4000 metrdan ziyod balandlikdagi Hazrati Sulton cho‘qqisiga chiqishni eplashganiga qoyil.

Aslida, bu joy mamlakatimizning eng baland nuqtalaridan. O‘lislarga boqib, Hisor tog‘ tizmalariga ko‘zingiz tushadi. Yastanib yotgan muzliklarni ko‘rib, hayratlanasiz.

Bexato sanash imkoni bor

Yurtning mo‘jizakor manzillari bisyor. Faqat bir oz vaqt ajratib, borib ko‘rish kerak, xolos. Aslida, turmush tashvishlaridan ortib, manzillar sari otlagan kishi sarflagan vaqtiga aslo achinmaydi. Mana shunday manzillardan biri Qamashi tumanida ham bor. Jumladan, dengiz sathidan 2650 metr balandlikda Maydanak observatoriya joylashgan hududga qadam qo‘ygan kishi yana borishni istab qolishi tabiiy. Mazkur observatoriyaning aynan shu manzilda joylashishining o‘ziga xos jihatlari bor.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1960-yillarning ikkinchi yarmida yurtimizning turli nuqtalarida astrofiziklarni o‘rganib yurgan astronomlar aynan Maydanakdan ko‘rinadigan manzaraga yuqori baho bergan. Natijada 1970-yilda shu yerda ikkita rasadxona barpo etilgan. Rasadxona mustahkam va ravshan atmosfera sharoitiga ega ekan, tungi osmon yiliga taxminan 2000 soat musaffo ko‘rinishi astronomik kuzatuvlar uchun yuqori sifatini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, observatoriya bulutlardan ham balandda joylashgani uchun osmonni kuzatish oson. Bugun ushbu hududda ekoturizmi rivojlantirish maqsadida katta ishlar qilinmoqda.

Bundan avval hududga borganimizda ancha muammoga duch kelgandik. Tog‘li manzil. Yaqin atrofida bir nechta qishloq bo‘lsa-da, yo‘l yurish ancha qiyin. Baland-past yo‘llarda mashina harakatlanishi oson bo‘lmagandi. O‘shanda shu manzilda joylashgan Chit qishlog‘i aholisi bilan suhbatlashgandik. Ular qishda muammo ko‘payishi, tuman markaziga qatnov uzilib qolishi kabi qator masalalar haqida gapirib bergandi. Bugun bu yerga e‘tibor qaratilib, bunyodkorlik ishlari qilinishi tog‘liklar uchun ham keng imkoniyat yo‘lini ochmoqda.

Prezidentimizning “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsioon hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Shahrisabz hamda Qamashi tumanlaridagi qator mahallalarda turizm obyektlari barpo etish belgilandi. Xususan, shu paytga qadar Shahrisabz tumanidagi Miraki shaharchasida bunyodkorlik ishlari bajarilib, deyarli yakuniga yetkazildi. Joriy yildan Maydanakda yangi loyihalar boshlandi.

Qarorda belgilangan vazifalarga ko‘ra, Katta o‘ra mahallasi hududidagi 58,6 gektar yerda mehmonxona, sihatgoh, umumiy ovqatlanish obyektlari, dor yo‘li, tog‘-chang‘i kompleksi va boshqa inshootlar qurilishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda dastlab mutaxassislar tomonidan reja ishlab chiqildi.

— “Maydanak baland tog‘” turistik markazida tayyor biznes shaklida kapsula uylar, avtomobil turar joylari, vertolyot qo‘nish maydonchalari va restoran qurilmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti bosh mutaxassisi Shahzod Xayrullayev. — Ayni paytda ishlar jadal davom etmoqda. Hudud sayyohlar uchun qulay manzilga aylantirilmoqda. Dam olish istagida keluvchilar bu yerning go‘zal tabiati, musaffo havosi, yashil dunyosidan bahramand bo‘lishi uchun ko‘ngildagidek sharoit yaratiladi. Bu ishlarni bajarish uchun 49,3 milliard so‘mlik loyiha tayyorlangan.

Ilgari bu joyda ikkita rasadxona bo‘lgan, xolos. Tabiat qo‘ynida dam olish istagida keluvchilarga imkoniyat yo‘q edi. Hozir yo‘l ta‘miriga ham katta e‘tibor qaratilgan. Kelgusida Maydanakka keluvchilar musaffo osmon ostida yulduzlarni tomosha qiladi. Bundan tashqari, atrofdaqi archazorlar ham sayyohlarni o‘ziga matfun etadi. Aslida, go‘zal va mo‘jizakor manzaralar haqida ming bor eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hunarmandlik

Zargarlik san‘ati o‘zbek milliy madaniyati tarixining ajralmas qismi. U asrlar davomida taraqqiy etgan ko‘hna hunarlardan biri. Ayni paytda undan samarali foydalanish iqtisodiy o‘shisha ham xizmat qiladi.

Prezidentimiz joriy yil 26-iyunda “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni qabul qilgan edi. Bu hujjat sohada yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, zargar ustalarini har jihatdan rag‘batlantirish imkoniyatini berdi.

Buyuk ipak yo‘lida joylashgan ko‘hna Marg‘ilon ipak, shoyi, atlaslari bilan ma‘lum mashhur. Endi esa ular qatoriga zargarlik an‘analari ham qo‘shildi. Bu yurtning mahorati hunarmandlari nafaqat o‘z mahsulotlari bilan, balki yoshlarga hunar o‘rgatish orqali ham milliy merosimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelmoqda. Shunday hunarmandlardan biri Akbarali Umaraliyev. U chorak asrdan buyon zargarlik qiladi. Zargar “ustoz-shogird” an‘analari asosida o‘nlab yoshlarga kasb sirlarini o‘rgataypti.



— Bolaligimda rasm chizishni yaxshi ko‘rganman, — deydi Akbarali Umaraliyev. — Maktabni tamomlab, musiqa yo‘nalishida tahsil oldim, ishladim. Ammo qo‘limga qalam olib, turfa janrlarda rasmlar chizishni kanda qilmadim. O‘tgan asrning 90-yillarida Marg‘ilondagi “Yodgorlik” fabrikasida zargarlik ustaxonasi tashkil etilayotgani, sohaga qiziqqan yoshlar tanlov asosida hunarga jalb etilishidan xabar topdim. Toshkentda uch oylik qisqa kursda o‘qib keldim. Biroq ishlarimiz yurishmadi. Chunki zargarlik sanoatiga bugungiday e‘tibor berilmasdi. O‘sha vaqtda bu yo‘nalishda aniq bir tuzilma yo‘q edi.

Mehnatiga yarasha rag‘bat, manfaat topa olmagun hunarmand oila tashvishi sabab xorijga ish qidirib ketdi. Ammo sevgan hunarini ko‘ngildan chiqarmadi. Ishlab topgan

daromadining bir qismiga zargarlik ustaxonasi uchun asbob-uskuna xarid qildi. Shu tariqa mo‘jaz ustaxonaga ega bo‘ldi.

Ayni damda Marg‘ilon shahridagi tarix muzeyi huzurida zargarlik ustaxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ustaxonadagi betakror, nafs, serjilva, rang-barang taqinchoqlar zargarining mehnat va mahorati, izlanishlari mahsuli.

Zargarlikda har bir hududning o‘z uslubı, tayyorlash an‘analari bor. Farg‘ona zargarlik yo‘nalishida kokilbaldoq, qalampirxusa taqinchoqlar tayyorlash keng tarqalgan. U o‘ziga xos jilva, rang-barang tovlanishi, nozik ko‘rinishlari bilan e‘tiborni tortadi.

— Zargar, avvalo, rassom, dizayner bo‘lishi kerak. Keyin undan sabr-bardosh talab etiladi, — deydi usta Akbarali Umaraliyev. — Zargar ishlayotganda dunyoqarashi, tabiat uyg‘unligiga

hamohang ko‘ngli, xotirjamligi muhim. Bularsiz biror natijaga erishib bo‘lmaydi. Shogirdlarimga hunarmandlikning bu jihatlarni juda ko‘p eslataman. Insonga yoqqan har bir taqinchoq unga yarashqli bo‘lishi kerak. Mahsulot tayyorlashda mis, kumush, marvarid, yoqut, dur ishlatamiz. Metalni eritib quyish, zarb bilan yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), bo‘rtma yoki o‘yilgan holda naqsh solish, bosma qolipli usullardan keng foydalanamiz.

Zargarlik buyumlari nafaqat chiroyli ko‘rinishi, balki inson salomatligi uchun foydali jihatlari borligi bilan ham e‘tibor tortadi. Misdan tayyorlangan bilaguzuk yurak urishini me‘yorlashtiradi, tanadagi zararli bakteriyalarni o‘ldiradi, kumush qonni suyultiradi.

Yurtimiz qimmatbaho qazilmalarga boy. Keyingi yillarda mavjud imkoniyatlardan foydalanish ko‘lami kengaydi. Zargarlikda ham yangi davr boshlandi. Yaqin yillargacha hunarmandlikning bir turi sifatida ko‘rilgan mazkur yo‘nalish bugun sanoat darajasiga yetdi. Sohada ishlab chiqarish hajmi, ish o‘rni va eksport salohiyati keskin oshdi. Huquqiy asos va sohaga e‘tibor natijasida Farg‘ona viloyatida ilk bor zargarlik markazi tashkil etildi. Yangi korxonada xomashyoni birlamchi qayta ishlash, mahsulot ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish uchun shart-sharoit yaratildi. Zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonaga 6 million dollar investitsiya jalb etildi. Bu yerda turkiyalik va ozarbayjonlik investorlar hamkorligida umumiy qiymati 2,2 trillion so‘m bo‘lgan 1,5 tonna zargarlik buyumlari ishlab chiqariladi.

— O‘zbekistondagi tinchlik va barqarorlik, xorijlik sarmoyadorlar uchun yaratib berilgan qulay sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar faoliyatimizda qo‘l kelmoqda, — deydi turkiyalik investor Jamil Aqlli. — Korxonamizda 60 dan ortiq ishchi bor. Farg‘onalik yoshlarga tabiiy xomashyodan qo‘shilgan qiymat zanjiriga asoslangan zargarlik buyumlari ishlab chiqarishni o‘rgataypmiz. Markazimiz soha



uchun muhim bo‘lgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bu dunyo zargarlik sanoatida raqobatbardosh taqinchoqlar ishlab chiqarish va eksport miqdorini oshirish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy dizayn va yuqori sifatlı mahsulotlar xaridorlarga manzur bo‘lmoqda. Istiqbolli loyihalar dasturi doirasida o‘quv markazlari ochish, “ustoz-shogird” an‘analarni yo‘lga qo‘yish belgilangan. Bu esa bir vaqtning o‘zida 300 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratish, “Fergana gold” brendi ostida mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu mahsulotlar nafaqat mahalliy, balki AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Singapur, Turkiya va Xitoy kabi yirik bozorlarda ham sotiladi.

Viloyatda “ustoz-shogird” an‘analari asosida ishlayotgan zargarlar safi ko‘payib bormoqda. Ustalaraga shogird tayyorlash, zarur xomashyo va jihozlar sotib olish uchun qator imtiyoz va imkoniyatlar berilmoqda. Bu ham ko‘hna hunar taraqqiyotiga xizmat qilaypti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.

34751 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 02:50

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05